

MEHNAT SHARTNOMASI. KONTRAKT TUSHUNCHASI

Xusanova Oysuluv Mamadali qizi

Kasbiy faoliyat huquqiy asoslari, Kafedra: Hamshiralik ishi

Annotatsiya: *Maqolamning mazmuni shundan iboratki, mehnat shartnomasi va kontrakt tushunchasi haqida to'liq bayon etilgan. Mehnat shartnomasi - xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuv. Kontrakt Tushunchasi. Kontrakt — bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida kelishilgan shartlarni ifodalovchi huquqiy hujjatdir. U tomonlar o'rtasida huquq va majburiyatlarni belgilaydi va taraflar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat shartnomasi, mutaxassislik, malaka, lavozim, kontrakt, huquq, majburiyat.*

Mehnat shartnomasi - xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuv. U mehnatga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi MKda Mehnat shartnomasining taraflari ko'rsatilgan. Mehnat shartnomasining bir tarafi — ya'ni xodim sifatida ish beruvchi bilan Mehnat shartnomasituzgan O'zR fuqarosi, chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslar bo'lishi mumkin. Mehnat shartnomasining ikkinchi tarafi — ish beruvchi quyidagilar bo'lishi mumkin: korxonalar, shu jumladan, ularning alohida tarkibiy bo'linmalari o'z rahbarlari timsolida; mulkdorning o'zi ayni bir vaqtda rahbar bo'lgan xususiy korxonalar; 18 yoshga to'lgan fuqarolar faqat shaxsiy maishiy ehtiyojlari uchun boshqa shaxslarning mehnatidan foydalanishi (mas, uy xizmatchisi, enaga, shofer, mashinkachi bilan Mehnat shartnomasi tuzish) mumkin. Mehnat shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlari Mehnat shartnomasining mazmuni hisoblanadi. Mehnat shartnomasining ayrim shartlari bevosita qonun hujjatlarida nazarda tutiladi (mas, mehnat ta'tilining eng kam muddati, barcha xodimlar uchun eng ko'p ish vaqti; institutizomiy jazo turlari va ularning qo'llanish tartibi va boshqalar).

Ishlab chikiladigan Mehnat shartnomasi shartlari zarur va qo'shimcha shartlarga bo'linadi. Zarur shartlar (mas, ish joyi, mehnat vazifasi, mehnat haqi miqdori va boshqalar) taraflarsiz tuzilishi mumkin bo'lmagan shartlardir. Majburiy bo'lmasa ham, taraflarning xohishiga ko'ra, kiritilishi mumkin bo'lgan shartlar qo'shimcha shartlar hisoblanadi [mas, ishga qabul qilishda sinov belgilash, kasb(lavozim)larni qo'shib olib borish to'grisida, to'liqsiz ish vaqtini belgilash va boshqa]. Mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimlarga qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari

darajasi pasaytirilishi mumkin emas. Xodim tomonidan mehnat vazifasining bajarilishi, ya'ni muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ishni bajarish; xodimning ichki mehnat tartibi qoidalariga bo'ysunishi; uning mehnat qilayotgan korxonada mehnat jamoasiga qo'shilishi Mehnat shartnomasining asosiy belgilari hisoblanadi. Mehnat shartnomasi yozma shaklda, bir xil kuchga ega bo'lgan kamida 2 nusxada tuziladi. 110-mudda. Mehnat shartnomasining muddati Mehnat shartnomasi: nomuayyan muddatga; uch yildan ko'p bo'lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin. Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati shartlashilmagan bo'lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi. Agar Mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday hodda Mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi. Nomuayyan muddatga tuzilgan Mehnat shartnomasi xodimning roziligisiz muayyan muddatga mo'ljallab qayta tuzilishi mumkin emas. Muddatli Mehnat shartnomasi bajarilajak ishning xususiyatlari, uni bajarish shartlari xodimning manfaatlarini hisobga olib, nomuayyan muddatga mo'ljallangan Mehnat shartnomasini tuzish mumkin bo'lmagan takdirda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda tuziladi. Mehnat shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Xodim o'ziga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirilishi lozim. Mehnat shartnomasi taraflar kelishuviga asosan dastlabki sinov belgilash sharti bilan tuzilishi mumkin. Ayrim toifa xodimlar, jumladan, homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, korxonada uchun belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan shaxslar ishga kabul qilinganda, shuningdek, 6 oygacha muddatga Mehnat shartnomasi tuzilganda dastlabki sinov belgilanmaydi. Dastlabki sinov muddati 3 oydan oshib ketishi mumkin emas. Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf 2- tarafni 3 kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, Mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir. Mehnat shartnomasi — bu xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka va lavozim bo'yicha ishni bajarish bo'yicha taraflarning kelishuvi. Shartnoma Taraflari.

- Xodim: O'z fuqarosi yoki chet el fuqarolari, shuningdek fuqaroligi yo'q shaxslar.
- Ish beruvchi: Korxonalar, shuningdek, ularning alohida tarkibiy bo'linmalari, xususiy korxonalar va shaxsiy maishiy ehtiyojlar uchun ishchilar.

Shartnoma mazmuni. Mehnat shartnomasining mazmuni taraflarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi shartlar qonun hujjatlarida nazarda tutiladi (masalan: mehnat ta'tilining eng kam muddati). Zarur va qo'shimcha shartlar. Mehnat shartnomasidagi zarur shartlar taraflarsiz tuzilishi mumkin bo'lmaydigan shartlardir (mas: ish joyi, mehnat haqi). Qo'shimcha shartlar esa taraflar xohishiga ko'ra kiritilishi mumkin. Yozma shaklda tuzish. Mehnat shartnomasi yozma shaklda va kamida 2 nusxada tuziladi. Muddati:

- Nomuayyan muddatga tuziladigan shartnoma.
- Muddatli shartnoma: maxsus shartlar asosida tuzilishi mumkin. Agar muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Shuningdek, muddatli mehnat shartnomasi xodimning roziligisiz qayta tuzilishi mumkin emas.

Kontrakt tushunchasi. Kontrakt — bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida kelishilgan shartlarni ifodalovchi huquqiy hujjatdir. U tomonlar o'rtasida huquq va majburiyatlarni belgilaydi va taraflar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Kontraktning asosiy elementlari.

- Tomonlar: Kontrakt taraflari (masalan, ish beruvchi va xodim).

- Ob'ekt: Soddalashtirilgan ifodalarda bu kontrakt asosida bajarilishi kerak bo'lgan ish yoki xizmat.

- Shartlar: Tomonlarning o'zaro kelishgan talab va majburiyatlari.

Kontraktning turi:

- Ish berish kontrakti: xodim va ish beruvchi o'rtasida tuziladi.

- Sotuv kontrakti: sotuvchi va xaridor o'rtasida tovar yoki xizmatni sotish bilan bog'liq.

- Xizmat ko'rsatish kontrakti: bir shaxsning ikkinchi shaxsga xizmat ko'rsatishini nazarda tutadi.

Kontraktning tuzilishi. Kontrakt yozma shaklda, albatta, ikki nusxada tuzilishi kerak. U ko'pincha taraflar tomonidan imzolangan va shartlarning batafsil ko'rsatilishi bilan birga keladi. Kontraktning qonuniy asoslari. Ko'p davlatlarda kontraktlar huquqiy jihatdan himoyalangan va tegishli qonunlar asosida amal qiladi. Har bir kontrakt o'z vaqtida bajarilishi kerak va qoida tariqasida, shartlar buzilgan taqdirda, mas'uliyat belgilangan. Kontrakt tushunchasi muayyan shartlar va majburiyatlarni asosida tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi, shu bilan birga ularning huquqlarini himoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mannonov.Y.O, Mavlonov.K.G. Mehantni muhofaza qilish. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik yo'nalishi bo'yicha.) —T: «ILM ZIYO», 2015. – 25 bet.

2. data.gov.uz/uz/datasets/9179. 4. Gasanov M, Sokolov Y.O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari. Savollar va javoblar // Mas'ul muharrir E. Xalilov. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999. - 172 bet.

3. <https://stat.sud.uz/fib.html>. Oliy sud Rayosatining 2022 yil 28 yanvardagi RS08-22-sonli qaroriga Ilova.

4. Gasanov M, Sokolov Y.O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari. Savollar va javoblar // Mas'ul muharrir E. Xalilov. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999. - 179 bet.

5. <https://sud.uz/> Oliy sud Rayosatining 2020 yil 28 maydagi RS-23-20-sonli qaroriga 2-ILOVA. 6-2133-19-sonli ish.

6. Gasanov M, Sokolov Y.O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari. Savollar va javoblar // Mas'ul muharrir E. Xalilov. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999. - 247 bet.

7. <https://sud.uz/> Oliy sud Rayosatining 2021 yil 29 iyuldagi PC-46-21-sonli qaroriga ILOVA. 6-1235-21-sonli ish.

8. Gasanov M, Sokolov Y.O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari. Savollar va javoblar // Mas'ul muharrir E. Xalilov. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999. - 423 bet.

